



## XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MODDIY AKTIVLAR HISOBINING YURITISH YO‘NALISHHLARI

***Annotatsiya:***

*Maqola moddiy aktivlar hisobi tizimining nazariy va amaliy jihatlarini ko‘rib chiqish, mayjud muammolarni tahlil qilish va takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:***

*moddiy aktivlar, uzoq muddatli moddiy aktivlar, qisqa muddatli moddiy aktivlar, amortizatsiya hisoblash, inventarizatsiya.*

***Information about  
the authors***

**Raxmanova Shaxnoza Sherkulovna**  
*ISFT instituti o‘qituvchisi, TDIU mustaqil tadqiqotchisi*

**Kirish.** Mamlakatimizda hozirgi kunda xo‘jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy barqarorlikka erishishda moddiy aktivlar hisobini yuritish tizimini samarali boshqarishga ehtiyoj sezmoqda. Ushbu jarayon moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlash, soliqqa tortish bazasini to‘g‘ri belgilash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim omil hisoblanadi. Moddiy aktivlar va ularning xo‘jalik faoliyatidagi o‘rni beqiyosdir.

Moddiy aktivlar bu- xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun iqtisodiy resurslarning asosiy qismi bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Uzoq muddatli moddiy aktivlar. Masalan, binolar va inshootlarning amortizatsiyasi ishlab chiqarish tannarxiga bevosita ta’sir qiladi. Texnologik uskunalar va transport vositalari esa ishlab chiqarish quvvatini oshirishga xizmat qiladi. Yer uchastkalari va tabiiy resurslari subyektning uzoq muddatli strategik faoliyatida muhim ahamiyatga egadir.

2. Qisqa muddatli moddiy aktivlar. Masalan, xo‘jalik yurituvchi sub`ektlarda xomashyo va materiallar ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz ta’minlaydi. Tayyor mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlar esa foyda olishning asosiy manbai sifatida xizmat qiladi.

Moddiy aktivlarning to‘g‘ri hisobini yuritish xo‘jalik yurituvchi subyektlarining rentabelligi va kapital unumdorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Korxona faoliyatida moddiy aktivlar hisobining yuritishda samarali usullari va amaliyotidan foydalanish zarurdir. Moddiy aktivlarni hisobga olish va tahlil qilishda xalqaro standartlar va milliy qonunchilik talablariga muvofiqlikni ta’minlash lozim.

**1. Baholash usullari:**

Moddiy aktivlar dastlabki qiymat, joriy bozor qiymati yoki diskontlangan qiymat asosida baholanadi. Dastlabki qiymat asosida baholash aktivni sotib olish narxini va unga bog‘liq qo‘sishimcha xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

**2. Amortizatsiya hisoblash:**

Amortizatsiya usullari moddiy aktivning iqtisodiyotga va uning iqtisodiy samaradorlikka ta’siriga qarab tanlanadi. Misol: Tezlashtirilgan amortizatsiya usuli iqtisodiy foyda olishni faoliyatning dastlabki bosqichlarida maksimal darajaga chiqaradi.

### 3. Inventarizatsiya:

Inventarizatsiya aktivlarning haqiqiy mavjudligini hisobga olish, moliyaviy hisob-kitoblar bilan bog'liq kamchiliklarni aniqlash va tuzatish uchun muhim jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon inventarizatsiya komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

### 4. Moliyaviy hisobotlarda aks ettirish:

Moddiy aktivlar hisobotlarda ularning dastlabki qiymati, amortizatsiya summasi va joriy bozor qiymati haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi.

**Xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar.** Xalqaro amaliyotda moddiy aktivlarni boshqarish va hisobga olishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

IAS 16: Asosiy vositalar standarti moddiy aktivlarni baholash va amortizatsiya qilishda asosiy qo'llanma hisoblanadi. AQShning GAAP standartlari moddiy aktivlarning qiymatining amortizatsiyadan keyingi hisobi va ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirishni tartibga soladi.

Zamonaviy texnologiyalar, masalan, SAP ERP va Oracle Financials platformalari, moddiy aktivlarni avtomatik ravishda hisobga olish imkoniyatini beradi. Misol: Germaniyada korxonalar raqamlashtirilgan inventarizatsiya tizimidan foydalangan holda aktivlarni aniqlash va monitoring qilish samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston sharoitida moddiy aktivlar hisobi. O'zbekistonda moddiy aktivlarni hisobga olish «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonun va buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) asosida tartibga solinadi. Ayniqsa, BHMS 5-son standarti asosiy vositalarni hisobga olishga qaratilgan.

Quyidagi amaliy muammolar kelib chiqish mumkin:

1. Inventarizatsiya jarayonida inson omili sababli xatoliklar yuzaga keladi.
2. Zamonaviy axborot tizimlarining yetarlicha qo'llanilmasligi.
3. Amortizatsiya usullarining to'g'ri tanlanmasligi korxona foyda solig'i bazasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida muammolarni bartaraf etish uchun milliy hisob usullarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni tavsiya qilimiz mumkin. Shuningdek, moddiy aktivlar hisobini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Zamonaviy dasturiy ta'minotlardan keng foydalanish.
2. Inventarizatsiya jarayonini avtomatlashtirish va inson omilini kamaytirish.
3. Mutaxassislarni xalqaro standartlarga muvofiq o'qitish.
4. Moliyaviy hisobotlarning aniqligini oshirish uchun ichki nazorat tizimini mustahkamlash.

O'zbekiston sharoitida esa moddiy aktivlarni hisobga olishni zamonaviylashtirish korxonalar samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ularning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini ham kuchaytiradi. Bu esa xo`jalik yurituvchi sub`ektlarga katta imkoniyatlar eshigini ochib berib, jahon bozoriga chiqish va yuqori foyda olishga samarali yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O'RQ-404-sodn «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni (yangi tahriri) 16 aprel 2016 yil
2. 114-sodn bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti(5-sonli BHMS) «Asosiy vositalarni tasdiqlash» to`g'risida. 09 oktabr 2003 yil , Toshkent sh.